

**“MAXZAN UL-ASROR ASARIDA QO’LLANGAN BADIY SAN’ATLAR”***Ismatova Zarina Yodgorovna magistr**Navoiy davlat pedagogika institute “o’zbek tili va adabiyoti”  
fakulteti 1-kurs magistranti.*

**Annotation.** Ushbu maqoada Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” asarida qo’llangan shaxlar (hukumдорлар, din arboblari) haqida so’z boradi. Maqola davomida hukumдорлар va din arbblarining shaxsiyatлari hamda ular qilgan ishlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu maqolada inson qalbining tarbisi va uni pok saqlamoq lozimligi xususida aytib o’tiladi

**Kalit so’zlar:** doston, nazira, an’ana, sujet, tahlil, masnaviy, talmeh

**Абстрактный.** В данной статье говорится о персонажах (правителях, религиозных деятелях), использованных в произведении Низами Гянджеви «Махзан ул-асрап». В статье приведены сведения о личностях главных правителей и религиозных деятелей, а также о том, чем они занимались. В этой статье говорится о воспитании человеческого сердца и необходимости сохранять его в чистоте.

**Ключевые слова:** эпос, назира, традиция, сюжет, анализ, маснави, тальме.

**Abstract.** This article talks about the characters (rulers, religious figures) used in Nizami Ganjavi's work "Makhzan ul-asrar". The article provides information about the personalities of the main rulers and religious figures, and what they did. This article talks about the education of the human heart and the need to keep it pure.

**Key words:** epic, nazira, tradition, subject, analysis, masnavi, talmeh

**KIRISH**

Xamsanavislik Sharq adabiyotining eng go’zal va boy ananalaridan biridir. Barchamizga ma’lumki buning natijasida insoniyat tomonidan yaratilgan ma’naviy meros xazinasi ko’plab nodir durdonalarga ega bo’ldi. Shuningdek buyuk mutafakkir so’z ustalari tomonidan yaratilgan masnaviyilar Sharq xalqlari madaniyati, turmush tarzi va ma’naviy qiyofasining shakllanishida sezilarli tasir ko’rsatdi.

Shayx Nizomiy Ganjaviy – buyuk Ozarbayjon shoiri. Uning sharq adabiyotida xamsachilik an’anasini boshlab bergan shaxs ekanligi barchamizga ma’lum. Amir Husrav Dehlaviy, Abdurahmo Jomiy, Alisher Navoiy kabi shoirlar Nizomiy Ganjaviyini o’zlariga ustoz deb bilishgan va unga izdosh sifatida Xamsa yaratishgan. Maxzan ul-asror Nizomiy “Xamsa”sining ilk dostoni hisoblanadi. Bu asarda sirlar xaznasi bo’lmiy inson qalbi hamda uning tarbiyasi xususida so’z boradi. Bu asarda shoir ehtirom ila ko’ngilga “xo’jam” deb murojaat qilganligini ko’rishimiz mumkin. Shuningdek dil-Haq nazargohi degan ilohiy hikmatni g’oyat hassos ohangda tarannum etadi.





## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Musulmon Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri, nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rghanuvchi soha ilmi badi' bo'lib, uning asosini mumtoz she'riyat, ba'zida nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo'llanilayotgan badiiy san'atlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, ilmi badi' *sanoyi'* ilmi deb ham yuritiladi. Ilmi badi'ga doir dastlabki asarlar arab tilida yaratilgan bo'lib, ularga Ibn Mu'tazning "Kitob ul-badi'"(9-a.), Nasr binni Hasanning "Mahosin ul-kalom" (9-10- a.), , Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r" (10-a.) asarlari kiradi. Ilmi badi' forstojik adabiyotshunosligida o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balogs'a", Rashididdin Vatvotning "Xadoyiq us-sehr", Shams Qays Roziyoning "Al-mo'jam"(uchinch qismi, 13-a.), Vohid Tabriziyoning "Jam'i muxtasar" kabi asarlari shu sohaga bag'ishlangan mumtoz asarlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Turkiy tilda ilmi badi' masalalari aks etgan asar sifatida Shayx Ahmad Taroziyuning "Funun ul-balogs'a" asarini keltirish mumkin. Risolaning uchinchi qismi badiiy san'atlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda 97 san'at turi haqida so'z boradi. Ilmi badi'ga doir nisbatan mukammalroq asar Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" risolasi bo'lib, unda ilmi badi' tarixida ilk marta badiiy san'atlar uch katta guruhga: ma'naviy, lafziy va mushtarak san'atlarga ajratilgan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nizomiy Ganjaviy ilmi badi'ga doir maxsus asar yaratmagan bo'lsa-da, o'zining ko'plab asarlarida ilmi badi'ning ba'zi nazariy jihatlariga to'xtalib o'tadi. Nizomiy Ganjaviy asarlarida badiiy san'atlarning juda go'zal namunalarini qo'llagan.

**Kalomi Jomi'** (arabcha – jamlovchi, umumlashtiruvchi so'z) – she'rda yoki baytda pand-nasihat, o'git, axloq-odobga oid, zamona va zamondoshlardan shikoyat bilan bog'liq fikrlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at. Kalomi jomi' haqidagi dastlabki ma'lumotlar Umar Roduyoniyning "Tarjumon ul-balogs'a" (11-a.) asarida keltirilgani ma'lim, muallif ushbu san'atga quyidagicha ta'rif bergan: "Balog'at ilmiga xos san'atlardan biri shundan iboratki, bunda Sho'ir o'z nutqini hikmatli so'z, pand-nasihat, taqdirdan shikoyat va shu kabilar bilan bezaydi". Shunga o'xshash fikrlar ilmi badi'ga doir forsiy tildagi boshqa mumtoz manbalar: Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq ussehr" , Sharafiddin Romiyoning "Haqoyiq ul-hadoyiq"), Husayn Voiz Koshifiyning "Badoyi' ul-afkor" , Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" asarlarida ham bayon qilingan. Turkiy adabiyotshunoslikda K.j. haqidagi ilk ma'lumot Shayx Ahmad Taroziyuning "Funun ul-balogs'a" (1436-37) asarida keltirilgan. Alisher Navoiy asarlarining deyarli barchasida pand-nasihat, o'git, axloq odobga doir fikrlarni uchratish mumkin. Xususan, "Nazm ul-javohir"dagi ruboiyalar boshdan-oyoq kalomi jomi' san'ati asosida yozilgan

***Har kimki habibing o'lsa evrul boshig'a,***



**Mahv o'l yuzig'a, jonni fndo qil qoshig'a,  
Tosh ursa, ravoningni tufayl et boshig'a,  
Tajdidi muhabbat angla bormoq qoshig'a.**

Nizomiy Ganjaviyning asarlarining aksariyatida axloqiy yoki ijtimoiy ruhdagi baytlar uchraydi. Masalan, “Maxzan ul- saror” asarining “Sayyod, uning iti va tulki “ hikoyisida bu san’atga misol ko’rishimiz mumkin

Kimki yaqiniga irodat qilur,  
O’ziga ul baxtu saodat qilur.  
Yo’lin yaqin tanla,kelur xosile,  
Bormi yana bo’yla ajab manzile.  
Tosh yaqinlik ila zar bo’lgusi ,  
Qatra yaqinlik-la guxar bo’lgusi.  
Ayla yaqinga qadaming ustuvor,  
Har ne ishing topgusi undan baror.

**Tajnis** (ar. – jinsdosh, hamjins) – baytda shaklan bir xil yoki bir-biriga yaqin so‘zlarni qo‘llashga asoslangan she’riy san’at. Asosan nazmda, ba’zan nasrda ham istifoda etiladi. Ilmi badi’ga doir manbalarda tajnisning bir necha turlari farqlanadi. Xususan, Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balogs” (11-a.) asarida tajnisning 4 turi (tajnisi mutlaq, tajnisi murakkab, tajnisi zoid, tajnisi muraddad), Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr” (12-a.), Shams Qays Roziyuning “Al-mo‘jam” (1218- 1233) va Shayx Ahmad Taroziyuning “Funun ul-balogs” (1436-37) asarlarida 7 turi (tajnisi tom, tajnisi noqis, tajnisi zoid, tajnisi mukarrar, tajnisi murakkab, tajnisi mutarraf, tajnisi xat) keltirib o’tilgan. Nizomiy Ganjaviyning “maxzan ul-asror” asarida tajnisning quyidagi turlari qo’llangan

**1. Tajnisi muzori'** – shaklan yaqin so‘zlarning bir-biridan bir yoki ikki undosh tovush bilan farqlanishi natijasida vujudga keluvchi tajnis:

**Simi ta’bing ranju riyozatga ber**  
**Zarri diling ranju riyozat-la ter**

**Husni ta'lil** (ar. – chiroqli dalillash) – biror voqeani unga bevosita daxli bo‘limgan boshqa bir hodisa bilan izohlash san’ati. Bunda Shoир o’zi tasvir etayotgan hodisaga biror go‘zal sabab ko‘rsatadi. Bu asoslash mantiqiy va hayotiy bo‘lmashdan, aksincha xayoliy, Shoirona shaklda namoyon bo‘ladi. Husni ta'lil san'atining nomi dastlab Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balogs” asarida uchraydi. Muallif Husnu ta'lilni “muayyan ob'ektni tasvirlashda biri birining sababi bo‘lgan ikki sifatning namoyon

bo‘lishiga asoslangan san'at” sifatida tasvirlaydi. Husni ta'lil haqdagi nisbatan kengroq ma'lumot Atoulloh Husayniyning “*Badoyi' us-sanoyi'*” asarida berilgan bo‘lib, muallif Taftazoniy va Qutbiddin Sheroziyning ushbu san'at haqidagi fikrlariga batafsil to‘xtaladi va Taftazoniy tasnifini keltirib o‘tadi. Bu tasnifga ko‘ra, husni ta'lil quyidagi to‘rt turdan iborat:

1) belgining mavjudligi, lekin sabab aniq ko‘zga tashlanmaganligi uchun uni xayoliy, badiiy sabab bilan izohlashga asoslangan.

1) belgining zikr etilgan sababdan boshqa yana bir – hayotiy bo‘lmagan sababga ega ekanligiga asoslangan.

1) belgining ba'zan sababga ega bo‘lish, ba'zan ega bo‘lmasligiga asoslangan.

1) belgining umuman sababga ega bo‘lmasligiga asoslangan.

Nizomiy Ganjaviyning “maxzan ul-asror” dostonning “Oxirzamon alomatlari bayoni”da husni ta'lil sanatiga ushbu misolni ko‘rishimiz mumkun.

Vaxmnimas , vaxmli ko’ngilni ko’r  
Qilni emas, qil kab shu yo’lni ko’r.  
Tutma u qil boshini,otgay hamon  
**Misli xamirdan sug’irib qilsimon.**

**Tazod** (ar. – zid qo‘yish, qarshilantirish) – baytda ma'no jihatdan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llashga asoslangan she'riy san'at. Nazm va nasrda keng qo‘llaniladi. Ilmi badi'ga doir manbalarda tazod san'ati turli nomlar bilan yuritilgan. Xususan, ushbu san'at Umar Roduyoniyning “Tarjumon ul-balogs” Toj al-Halaviyning “Daqoyiq ush-she'r” (14-a.), Sharafiddin Romiyning “Haqoyiq ulhadoyiq” asarlarida *mutazod*, Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs” (1436-37), Husayn Voiz Koshifiyning “Badoyi’ ul-afkor “asarlarida *al-mutazod*, Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam” (1218-1233), Hamididdin Najotiyning “Risolai feruziy” asarlarida *mutobiqa*, Shams Faxriy Isfahoniyning “Me'yori jamoliy” (1344-1345) asarida esa *al-itizod* istilohlari bilan keltirilgan. Tazod haqdagi nisbatan kengroq ma'lumot Atoulloh Husayniyning “*Badoyi' ussanoyi'*” asarida berilgan bo‘lib, muallif o‘z asarining lafziyu ma'naviy (mushtarak) san'atlarga ajratilgan qismida *mutobaqa* atamasi ostida ushbu san'atga to‘xtolib o‘tadi va tajnis san'atining *tiboq, tatbiq, tazod* va *takofu* deb ham yuritishini ta'kidlaydi. Risolada ushbu atamalarning har biriga alohida izoh berilib, ularning lug‘aviy ma'nosi keltiriladi.

Xush emas ul diydada bo‘lsa sirish,  
Uyquda birdek, **у о'ликми,тирик**

**Adabiyotlar:**

1. Yusupova D. Uzbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri), Akademinashr, -T., 2013.-B. 60
2. Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa” sida mazmun va ritmlash badiy.Uyg'unligi, Mumtoz so'z, -T., 2011.-B. 79
3. Xojiahmedov A. Sheriy san'atlar va mumtoz kofiya, Shark, -T., 1998. -B.4.
4. Qayumov A. Asarlar 3jild, Mumtoz so`z, -T., 2009.-B.147.
5. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar issiq. 20 yoshlik. 1-2 yil. muxlis, -T., 1987-1988 yillar. -B.144